

Aviatsiya musobaqalari doirasidagi “Uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalash” musobaqasini o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

Qatnashuvchilar yoshi:

- Asosiy – 16–30 yoshgacha
- Jamoa tarkibi – 2 nafar ishtirokchi

Mazkur musobaqada ishtirokchilar masofadan boshqariladigan uchuvchisiz uchish apparati (keyingi o‘rinlarda UUA – dron) yordamida yonayotgan uy maketi yong‘inini o‘chirish vazifasini bajaradilar.

Vazifa quyidagilardan iborat:

- dronni start maydonchasidan havoga ko‘tarish;
- belgilangan yo‘nalish bo‘ylab uy maketi joylashgan hududga yetib borish;
- yong‘inni suv yoki maxsus yong‘in o‘chirish kapsulasi yordamida o‘chirish;
- vazifa bajarilgandan so‘ng dronni belgilangan joyga xavfsiz qo‘ndirish.

MUSOBAQA MAQSADLARI

1. Uchuvchisiz uchish apparatlaridan favqulodda vaziyatlarda foydalanish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish;
2. Yong‘inlarni masofadan turib bartaraf etish texnologiyalarini rivojlantirish;
3. Innovatsion, amaliy va ijtimoiy ahamiyatga ega dron yechimlarini aniqlash;
4. Yoshlar orasida muhandislik, robototexnika va aviatsiya texnologiyalariga qiziqishni oshirish;
5. “Eng samarali yong‘in o‘chirish droni”ni aniqlash;
6. Favqulodda vaziyatlar uchun innovatsion texnik yechimlar zaxirasini shakllantirish.

MUSOBAQA SHARTLARI

- Musobaqa jamoalar o‘rtasida o‘tkaziladi.
- Dronlar start maydonchasiga (diametri 100 sm) joylashtiriladi.
- Yong‘in uy maketi ko‘rinishida bo‘lib, unda olov yoki xavfsiz olov imitatsiyasi qo‘llaniladi.
- Yong‘in o‘chirish quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:
 - suv purkash;

- maxsus yong'in o'chirish kapsulasi (kapsulani tashlash yoki joylashtirish).
- Uy maketi va yong'in joylashuvi musobaqa kuni e'lon qilinadi.
- Dron marshrut davomida belgilangan to'siqlardan o'tishi mumkin (1 dona yoki undan ortiq).
- Dronning olov o'chirish moslamasi ishtirokchilar tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan bo'lishi shart.
- Seriyali ishlab chiqarilgan dronlardan foydalanish mumkin.

MUSOBAQANI O'TKAZISH TARTIBI

- Jamoa harakati hakam signali bilan boshlanadi;
- Operator marshrut davomida almashtirilmaydi;
- Vazifani bajarish uchun maksimal vaqt – 3 daqiqa;
- Yong'in to'liq o'chirilsa, vazifa bajarilgan hisoblanadi;
- Hakamlar har bir bosqichni bayonnomaga qayd etib boradilar;
- Xatoliklar va qoidabuzarliklar ballning kamayishiga olib keladi.

ISHLANMAGA QO'YILGAN TALABLAR

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Qiymati
Dron uzunligi	sm	≤150
Dron kengligi	sm	≤150
Dron balandligi	sm	≤50
Uchish balandligi	m	≤15
Yong'in o'chirish yuk sig'imi	g	≥300
Boshqaruv tizimi	turi	pultdan
Kuchlanish manbai	turi	akkumulyator
Yong'in o'chirish mexanizmi	turi	suv / kapsula

BAHOLASH MEZONLARI (100 BALL)

1. G'oyaning innovatsionligi – 0–15
2. Yong'inni samarali o'chirish darajasi – 0–25
3. Vazifani bajarish vaqti – 0–15
4. Dronning barqarorligi va xavfsizligi – 0–10
5. Boshqaruv qulayligi – 0–10
6. Texnik yechimning musobaqa shartlariga mosligi – 0–10
7. Start va qo'nishning aniqligi – 0–15

JAMI: 100 ball

**Ushbu nizom musobaqa boshlanishiga kamida 30 kun qolganida o'zgartirilishi mumkin. O'z o'rnida yangilangan nizom barcha ro'yhatdan o'tgan ishtirokchilarga taqdim etiladi*

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

1-rasm

KELAJAK
MUHANDISLARI